



HUDUD IQTISODIYOTIDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

*PhD **Xakimov Zafar Ibragimovich**
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
ORCID: 0009-0007-7581-8498
zafarxakimov39@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada hudud iqtisodiyotining rivojlanishida asosiy faktor hisoblangan qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha muammolar va yechimlar aks etgan. Qishloq xo'jaligi har qanday mamlakat iqtisodiyotida asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari va ekologik tanazzul nafaqat tabiiy omillar bilan balki insoniyat taraqqiyotidagi jarayonlar bilan ham bevosita bog'liq bo'lib, natijada qurg'oqchiliklarning tez-tez takrorlanishi, chang-to'zonlarning doimiy kuzatilishiga hamda yog'ingarchiliklar mavsumlarining buzilishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa mamlakat qishloq xo'jaligi tizimiga, qishloq aholisi daromadlariga hamda oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, fermer xo'jaligi, rentabellik, ekologik muammolar, iqlim o'zgarishlari, investitsiya, innovatsiya.

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ

*PhD **Хакимов Зафар Ибрагимович**
Термезский университет экономики и сервиса*

Аннотация. В статье отражены проблемы и пути решения развития сельского хозяйства, которое считается основным фактором развития экономики региона. Сельское хозяйство является одной из основных отраслей экономики любой страны. Климатические изменения и деградация окружающей среды, наблюдаемые в последние годы, напрямую связаны не только с природными факторами, но и с процессами развития человечества, что приводит к частому повторению засух, постоянному мониторингу пыли и дождей, срыву дождливых сезонов. Это оказывает серьезное влияние на сельскохозяйственную систему страны, доходы сельских жителей, продовольственную безопасность.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, подсобное хозяйство, фермерской хозяйство, рентабельность, экологические проблемы, изменение климата, инвестиции, инновации.

AGRICULTURAL DEVELOPMENT OPPORTUNITIES IN THE REGIONAL ECONOMY

PhD Khakimov Zafar Ibragimovich
Termiz University of Economics and Service

Abstract. *This article reflects the problems and solutions for the development of agriculture, which is considered the main factor in the development of the region's economy. Agriculture is one of the main sectors in the economy of any country. Climate changes and environmental degradation observed in recent years are directly related not only to natural factors, but also to the processes of human development, resulting in frequent recurrence of droughts, constant monitoring of dust and rains, and disruption of rainy seasons. This has a serious impact on the country's agricultural system, the incomes of rural residents, and food security.*

Key words: *agriculture, subsidiary farming, farming, profitability, environmental problems, climate change, investment, innovation.*

Kirish.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson tabiatga turlicha ta'sir ko'rsatgan, natijada insonning atrof-muhitga bo'lgan munosabati ham shunga mos ravishda o'zgarib borgan. Bu davrlarda o'ziga xos fan-texnika yutuqlari faqatgina inson ehtiyojlarini qondirish maqsadida amalga oshirilgan. Barcha tabiiy yashash vositalariga tugamaydigan resurs sifatida isrofgarchilikka yo'l qo'yilgan oqibatda ekologik muammolar mahalliy, mintaqaviylik chegarasidan chiqib ijtimoiy, siyosiy va albatta iqtisodiy jihatdan umumbashariy ekologik muammolar darajasiga yetdi. Oxir oqibat necha ming yillar davomida barqaror bo'lgan ekologik muvozanat iqtisodiy jihatdan zavolga yuz tuta boshladi. Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarga zarar yetib insoniyatning umumiy vatani va makoni hisoblangan ona tabiat falokat yoqasiga kelib qoldi.

Hech kimga sir emaski, bugun inson iqtisodiy faoliyatining atrof-muhitga ta'siri biz bashorat qilgandan kuchliroq tus olmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri insoniyatni bir, bir yarim asrda 1 mlrd.dan 8 mlrd.gacha ko'payganligi bo'lsa, ikkinchidan tabiiy yashash vositalarini cheksiz deb tushunganligidadir (Farmon, 2019). Aslida esa inson yashash muhitini yaxshilash, zarur ehtiyojlarni to'laroq qondirish uchun ekosistemalar mahsuldorligi va uning barqarorligini oshirish lozim bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini shakllantiruvchi asosiy drayver hamda qishloq hududlarida aholi daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek har bir hududda oziq-ovqat xavfsizligi, aholi farovonligi va ishsizlik kabi muammolarni bartaraf etishda asosiy tarmoq bo'lish bilan bir qatorda iqlim o'zgarishlariga ta'sirchan hisoblanadi.

Jahon metrologiya tashkiloti (JMT) ning ma'lumotlariga ko'ra so'nggi yillar ya'ni 2016-2023-yillar eng harorat ko'tarilgan yillar sifatida tasdiqlanib, mintaqada hududlarning cho'llanish darajasi ortib bormoqda hamda oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy tahlika ostida qolmoqda²¹.

Mazkur maqolada hudud iqtisodiyotiga oid statistik ma'lumotlar va iqtisodiy qarashlar aks etadi hamda hudud iqtisodiyotining o'ziga xos jihatlari rivojlantirish xususiyatlari va geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligida innovatsion usullardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar aks etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan ushbu tarmoqni barqaror rivojlantirish doirasida muhim tarkibiy islohotlar olib borildi va o'z ijobiy natijalarini bermoqda. Ammo, bir tomondan

²¹ World Metrological Organization (WMO), <https://public.wmo.int/eng>

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi asosan sug'orma dehqonchilikka asoslanganligi, ikkinchi tomondan esa suv tanqisligi keskinlashayotganligi, shuningdek "O'zbekistonning 70 foiz erlari qurg'oqchil maydonlardan iborat"ligi kelajakda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqlim o'zgarishiga ta'sirchanligi yuqori ehtimollikda bo'lishligini ko'rsatadi. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev dunyo hamjamiyatiga murojaat qilib, "Iqlim jadal o'zgarimoqda, ommaviy migratsiya oqimlari ko'paymoqda, an'anaviy qadriyatlar zavol topmoqda" (Mirziyoyev, 2021) - deb ta'kidlaganlari holda iqlim o'zgarishining kelgusida ham salbiy ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda ish tutish va ushbu masalaga ilmiy yondashish lozimligiga alohida e'tibor qaratdi.

Lerman (2019) izlanishlariga ko'ra sobiq ittifoqni tarqalishi bilan Markaziy Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlarida qishloq xo'jaligining qontomiri hisoblangan sug'orish va suv bilan ta'minlash tizimida juda katta buzilishlar kuzatildi. Bunga sabab daryo suvlarining endilikda bir necha davlatlar hududidan o'tib kelishi, sovxoz, kolxoz yerlarini bir necha dehqon, fermer hattoki oilaviy pudratchilarga bo'lib berilganligi, mavjud infratuzilma inshootlari kolxoz va sovxozlar uchun yirik-yirik loyiha asosida qurilganligi uchun tizimda nomuvofiqlikni keltirib chiqardi.

Begdullayev (2019) antropogen ta'sir tufayli orolbo'yi mintaqasida tuproq sho'rlanishi, hosilning kamayishi va qishloq xo'jalik mahsulotlarining sifati yomonlashishi kuzatilmoqda, deb hisoblaydi. Shu sababli ham bunday sharoitlarda yaxshi o'sib rivojlanadigan ekin turlarini yetishtirish maqsadga muvofiqdir. Shunday ekinlardan biri jo'xori hisoblanib, u o'rta va kuchli sho'rlangan maydonlarda hamda suv tanqis sharoitlarda o'sib rivojlanadi.

Qo'ziyev, Abduraxmonov (2017) tadqiqotlariga ko'ra so'ngi yillarda agrar sohani keragidan ortiqcha kimyolashtirish tufayli yerlarni surunkasiga haydash va ushbu sohadagi monokultura biotsenozining degradatsiyasiga olib keldi. Buning natijasida foydali hasharotlar va boshqa jonli organizmlarning turlari keskin kamayib ketdi yoki yo'qoldi – oqibatda madaniy o'simliklar hosilining pasayib ketishiga sababchi bo'ldi.

Parpiyev va boshqalar (2020) ma'lumotlariga ko'ra Surxondaryo viloyati sug'oriladigan tuproqlarida irrigatsiya eroziyasiga chalinmagan yerlar 219 ming gektarni tashkil etib. Ya'ni jami sug'oriladigan yerlarga nisbatan 80, 85 % ni tashkil etadi. Viloyatning Termiz tumanida eroziya jarayoni kuzatilmaydi. Viloyat miqyosida 51,9 ming gektar (19,15%) ni turli darajada eroziyaga uchragan bo'lib, shundan kuchsiz darajada 34,3 ming gektar (12,68 %), o'rtacha darajada 12,6 ming gektar (4,65 %) va kuchli darajada 4,9 ming gektar (1,82 %) irrigatsiya eroziyasiga uchragan yerlarni tashkil etadi.

Mamlakatimizda 3 million gektar yaylov va ekin yerlari degradatsiyaga uchragan, 2 million gektarga yaqini turli darajada sho'rlangan. Xorijiy ekspertlar iqlim o'zgarishi sababli 2030-yilga borib, mintaqamizda suv resurslari qariyb 6 foizga qisqarishini aytmoqda. Buning choralarni hozirdan ko'rish zarur (Mirziyoyev, 2021).

Shu bois qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishiga moslashish va sohaning iqlimga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha 52 banddan iborat milliy dastur ishlab chiqildi. Dastur doirasidagi chora-tadbirlarga 294 million dollardan ortiq grant mablag'lari jalb qilish nazarda tutilgan (Farmon, 2019).

Tadqiqot metodologiyasi.

Muallif tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning qishloq xo'jaligiga oid iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi. Ekologik omil sifatida iqlim o'zgarishlarining agrarsoha iqtisodiyotiga ta'sirini tahlil qilishda agronomik, integratsion baholash, regression panel, ishlab chiqarish modellardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi PF-60-son farmoniga asosan 80-maqсад: Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish belgilab quyilgan.

Tahlillarga ko'ra mamlakatimizda 3 million gektar yaylov va ekin yerlari degradatsiyaga uchragan, 2 million gektarga yaqini turli darajada sho'rlangan. Xorijiy ekspertlar iqlim o'zgarishi sababli 2030-yilga borib, mintaqamizda suv resurslari qariyb 6 foizga qisqarishini aytmoqda. Bu jarayon kelgusida suv resurslariga bo'lgan talab yanada oshishi va hududlarda ekologik tang vaziyat hukm surishidan dalolat beradi (Muxtorov, Abdulkarimova, 2016).

Shu bois qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishiga moslashish va sohaning iqlimga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha 52 banddan iborat milliy dastur ishlab chiqildi. Dastur doirasidagi chora-tadbirlarga 294 million dollardan ortiq grant mablag'lari jalb qilish nazarda tutilgan.

Jumladan, hududlar bo'yicha muammolar tahlilida Orolbo'yida 1 million gektardagi agroekologik landshaftlar hamda degradatsiyaga uchragan yaylovlar holati yaxshilanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida ihotazorlar barpo qilinadi. Suv ta'minoti og'ir yerlarda qizilmiya, na'matak, kunjut, artemiya yetishtirish va iqlim xususiyatidan kelib chiqib ekinlar parvarishlanishi yo'lga qo'yiladi (Rustamova, Babadjanova, 2023).

Ekologik omillar va iqlim o'zgarishini tahlil va bashorat qilish bo'yicha markaz tuzilib, 5 ta viloyatda agrometeorologiya stansiyalari o'rnatiladi. Shuningdek, Italiya bilan hamkorlikda Intensiv urug'chilik va ko'chatchilik xalqaro markazi, sho'rga va suvsizlikka chidamli ekinlar bo'yicha urug'chilik xo'jaligi tashkil etilsagina muammo ga yechim topish mumkin.

Suvni tejash masalasi, ayniqsa, Amudaryoning quyi mintaqasida dolzarb. Shu bois, yana bir hujjatga ko'ra, Qoraqalpog'istonda yerni lazerli tekislash xarajatlari uchun subsidiya ajratish orqali qishloq xo'jaligi subyektlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'I lozim (Mirziyoyev, 2021). Ya'ni, paxta, boshqoli don va sholi yetishtiruvchilarga lazerli tekislangan har bir gektar maydonga sarflangan yoqilg'i-moylash materiallari xarajati 100 foizgacha qismini qoplash uchun Davlat byudjetidan subsidiya beriladi.

Birinchi bosqichda bu To'rtko'l, Beruniy va Amudaryo tumanlarida amalga oshiriladi. Bunday maydonlarda hosildorlik o'rtacha 5-7 sentnerga oshadi va suv sarfi 15-20 foiz tejaladi (Parpiyev va boshqalar 2020).

Surxondaryo viloyatida Akademik M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining yer maydonlaridan samarali foydalanish rejalari ham bayon qilindi.

Xususan, institutning Bandixon ilmiy-tajriba stansiyasidagi 142 gektar yer qaytadan foydalanishga kiritiladi. 300 gektar maydonda suv tejaydigan zamonaviy texnologiyalar o'rnatilib, eksportbop meva va uzumzorlar barpo etiladi.


Qiziltepa tumanidagi Navoiy ilmiy-tajriba stansiyasida uzum ko'chatchiligi bo'yicha tajriba xo'jaligi tashkil etilib, Fransiya va boshqa davlatlarning eksportbop navlari ko'chati olib kelinadi. Har ikki stansiyada suv ta'minotini yaxshilash uchun energiya tejamkor nasos agregati va transformator o'rnatiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining uzluksizligida issiqxonalarining alohida o'rni bor. So'nggi yillarda ularning maydoni 2,6 baravar, mahsulot yetishtirish hajmi 3 baravardan ziyod oshgan. Ushbu tarmoqda 80 ming aholi doimiy va 70 ming nafari mavsumiy ish bilan band (Farmon, 2019).

Issiqxona xo'jaliklarining samaradorligini oshirish maqsadida xorijdan malakali agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish xarajatlarining 50 foizini, issiqxonalar uchun ko'mir qozoni sotib olish xarajatlarining 20 foizgacha qismini qoplash taklif etilmoqda.

Tahlillarga ko'ra, mintaqada bug'doy ekin maydoni boshqa ekinlarga qaraganda 1991-

yildan keyingi davrda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ya'ni, bug'doy maydoni 1992-yilda 600 ming gektardan ko'proq maydonni egallagan. Bu ko'rsatkich yil sayin oshib borgan va 2003-yilda 1,5 mln. gektardan ko'proqni tashkil etgan. Lekin, qishloq xo'jaligidagi tarkibiy islohotlar va diversifikatsiyalar sababli 2021-yilda 1,3 mln. gektarni tashkil etgani holda, oldingi yillarga nisbatan kamaygan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda bug'doy ekin maydonining o'zgarish dinamikasi (1992-2021-yy).

Ma'lumki, O'zbekistonda uzoq yillik paxta monokulturasi oqibatida tuproq unumdorligining pasayishi kuzatilgan hamda yirik daryolar Sirdaryo va Amudaryoning quyi qismidagi hududlarda sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi oshgan.

Tahlillarga ko'ra, eng yuqori sho'rlanish Orol bo'yi havzasiga to'g'ri keladi. Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanishi ko'rsatkichlari bo'yicha respublikamiz hududi ichida Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlari eng katta maydonni egallaydi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha keyingi o'rinlarda Xorazm va Sirdaryo viloyatlari turadi. Sho'rlanish eng kam hududlarga esa Samarqand va Toshkent viloyatlari kiradi. Iqlim o'zgarishi va yer sho'rlanishi oqibatida fermer va dehqon xo'jaliklarida ortiqcha xarajatlar kelib chiqishi va foyda kamayib, rentabellikning pasayishiga sabab bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

**Respublikamizda iqlim o'zgarishi va tuproq sho'rlanishini
byg'doy hosiliga ta'sirini iqtisodiy baholash**

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Iqlim o'zgarishini hisobga olmaganda	Iqlim o'zgarishini hisobga olganda		
				Harorat, °C (16,2%)	Yog'ingarchilik, mm (2%)	Tuproq sho'rlanishi, gr (5%)
1	Hosildorlik	s/ga	60	50,3	58,8	57
2	Yalpi hosil	tn/ga	6	5,3	5,8	5,7
3	Ishlab chiqarish xarajatlari	ming so'm	16483	16800	16883	17500
4	Mahsulot tannarxi	so'm	2747,2	3169,8	2910,9	3070,2
5	Realizatsiya narxi	so'm	3100	3100	3100	3100
6	Mahsulot qiymati	ming so'm	18600	16430	17980	17670
7	Foyda	ming so'm	2117	-370	1097	170
8	Rentabellik	%	12,84	-2,20	6,50	0,97

Ma'lumki, iqlim o'zgarishi haroratning ko'tarilishiga, yog'ingarchilik shakllarining o'zgarishi tufayli esa tuproq sho'rlanishining oshishiga olib kelishi mumkin. Chunki, yuqori harorat bug'lanishning kuchayishiga olib kelsa, yog'ingarchilikning o'zgarishi, xususan

kamayishi tuproqda tuzlarning to'planishiga olib keladi. Tuproq sho'rlanishidagi bu kabi jadal o'zgarishlar o'simlikchalik rivojlanishiga salbiy ta'sir etgani holda pirovard maqsad oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammosini keltirib chiqaradi.

Xulosa va takliflar.

Hudud iqtisodiyotini rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan qishloq xo'jaligini rivojlanishida resurslardan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratish lozim Bunda:

1. Ekinlarni diversifikatsiya qilish: fermerlar iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflarni kamaytirish uchun o'z ekinlarini diversifikatsiya qilishlari mumkin. Bu har xil iqlim sharoitlariga mos keladigan turli xil ekinlarni yetishtirishni o'z ichiga oladi.

2. Innovatsion sug'orish usullaridan foydalanish: fermerlar suvni tejash va qurg'oqchilik ta'sirini kamaytirish uchun yanada samarali sug'orish tizimlarini qo'llashlari mumkin.

3. Yer resursini saqlash: tuproqni saqlash usullari, masalan, tuproqni haydamasdan ekin ekish yoki dehqonchilik qilish, mulchalash va qoplamali ekinlar orqali tuproq namligini saqlab qolish va eroziyani kamaytirishga yordam beradi.

4. Agroo'rmon xo'jaligi: fermer xo'jaliklarida daraxt ekish tuproq sifatini yaxshilash, eroziyani kamaytirish va ekinlar uchun soya yaratishga yordam beradi.

5. Yaxshilangan ekin navlari: fermerlar iqlim o'zgarishiga chidamliroq, qurg'oqchilikka chidamli yoki issiqlikka chidamli navlardan foydalanishi mumkin.

6. Ob-havo prognozi: ob-havo ma'lumotlaridan tez va muntazam xabardorlik fermerlarga o'z faoliyatini rejalashtirishda va ekstremal ob-havo hodisalari bilan bog'liq xavflarni kamaytirishda yordam beradi. Ushbu moslashish strategiyalari fermerlarga iqlim o'zgarishi ta'sirini yengish va rentabellikni saqlab qolishga yordam beradi.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:

Babaxolov Sh. Qishloq xo'jaligida iqlim omillari o'zgarishining ta'siri va adaptatsiya jarayonlarini iqtisodiy baholash (Samarqand viloyati misolida): avt.... diss. (PhD). <https://www.iamo.de/en/research/projects/details/ipres/>

Begdullayev T. (2019) "Dinamika zasoleniya pochv pod sorgo" Agro himoya va o'simliklar karantini jurnali. №-1, 47-49 bet. №11.

Farmon (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-con "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni,

Lerman, Z. (2019) *Agricultural recovery and individual land tenure: Evidence from Central Asia. Changing landscape of European agriculture. Essays in honour of professor Csaba Csaki.* / Budapest: Agroinform, 95-113.;

Mirziyoyev Sh. (2021) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida 2021-yil 21-sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqi. <https://uzreport.news/politics/prezident-uzbekistana-vidvinul-vajnie-initsiativi-na-76-y-sessii-generalnoy-assamblei-oon>.

Muxtorov, A., Abdulkarimova M. (2016) "Global iqlim o'zgarishiga moslashishi bo'yicha xorij tajribasidan foydalanishning ayrim jihatlari" "Agroilm" jurnali 2(40)-son, 73-75

Parpiyev G.T. va boshqalar (2020). "Bo'z tuproqlar mintaqasi sug'oriladigan tuproqlarning unumdorligini yaxshilashga doir tavsiyalar". Toshkent Zilol Buloq. 9-15, 21-22, 32-38 b.

Qo'ziyev R.Q., Abduraxmonov T.A. (2017) "Respublika tuproqlarining holati, unumdorligi va uni yaxshilash yo'llari". Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami. Toshkent. -12-23 b.

Rustamova I.B., Babadjanova M.M. (2023) Qishloq xo'jaligida "Fermerlarning agromaslahat (ekstenshn) xizmatlari to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarini baholash" //Agroiqtisodiyot. 2. 77-80.